

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Nemis tili xorijiy til sifatida darsliklarining sifatini tekshirish haqida	247
S.Z.Yo'Idoshev	
Sport faoliyati yo'nalishi talabalariga valeologiya fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	251
I.O.Umarov	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv-jangovar sifatlarni rivojlantirishning ta'lim texnologiyasi	256
Sh.M.Bazarbayeva	
Yettisuv viloyatida o'lat epidemiyasiga qarshi kurash siyosati (1900-1910-yillar).....	264
O.X.Mahamadjonova	
Bolalar folkloriga oid o'n ikki cho'p va lapar o'yinlari tavsifi va ta'rifiga doir	268
G.A.Donisheva	
Tarixiy jihatdan til leksikasining o'rganilish darajasi (Oybekning Navoiy romani misolida)	273
L.A.Xaitov	
Hakim termiziy merosida inson vujudi (borlig'i) va ruhiy uzviyiligi, inson o'zligi (nafsi) muammosi	276
Sh.S.Kodirova	
Teaching English language to geology students	280
S.S.Xojiyeva	
Maktab kimyo darslarida innovatsion metodlardan foydalanish	283
F.I.Sharipova	
Developing reading comprehension at future nurses	288
U.B.Usmonova	
Sarlavhalar publitsistik matnning muhim qismi	294
K.X.Авазов	
Региональное и международное сотрудничество в целях обеспечения безопасности, стабильности в Центрально-Азиатском регионе	297
A.N.Qosimov	
Sport vositasida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va g'urur-iftixon tuyg'usini shakllantirishning pedagogik zarurati	303
A.T.Nishonov	
OTM talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari	310
M.X.Tillavoldiyeva	
Raqamlı texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtaqidagi aloqadorlik muammolari	314
U.D.Xudoyorov	
Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi miqdor va sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlari.....	318
S.U.Allayarov	
O'quvchilar lug'at boyligini oshirishning lingvo-pedagogik xususiyatlari.....	325
Ch.T.Qurbanova	
Tabiiy geografiya va geoekologiyada GAT texnologiyalaridan foydalanish.....	329
Z.A.Kendjaeva	
Ilk, jahon dinlari va falsafiy qarashlarda shukronalikka munosobat.....	333
L.S.Sultonova	
Milliy qadriyatlarning innovatsion taraqqiyot talablari asosida rivojlantirish	338
Sh.T.Temirov	
Mir Muhammad Siddiq Hashmat shaxsiy kutubxonasining Buxoro ilmiy-adabiy muhitidagi o'rni.....	341
S.X.Kaxxarov	
Yoshlarda harbiy vatanparvarlik kompetensiyalarini shakllantirishda harbiy madaniyat omili.....	346
A.R.Jo'rayev	
Minnatdorchilik bildirish nutqiy janri verbal, noverbal va lingvistik atributlarining o'ziga xosligi	351
M.C.Мухамедова	
Роль Музеев Узбекистана в жизни общества (начало XX века).....	356
G.J.Tulenova	
On the issue of implementation of projects on the development and practical	



УО'К: 371.3:004.738.5

**OTM TALABALARIDA AXBOROT OQIMINI TAHLIL QILISH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АНАЛИЗА
ИНФОРМАЦИОННЫХ ПОТОКОВ У СТУДЕНТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ШКОЛ**

**PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMING INFORMATION FLOW ANALYSIS SKILLS IN
UNIVERSITY STUDENTS**

Nishonov Abduvoxid Tursunaliyevich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'onan filiali erkin tadqiqotchisi (PhD)

Аннотация

Ushbu maqolada jahon hamjamiyatida hosil bo'layotgan axborot bo'ronidan jamiyatning kelajagi, ziyoli qatlami bo'lgan yoshlarni himoya qilishda, ularda axborot madaniyatini shakllantirish o'ta dolzARB muammo ekanligi hamda talabalarida axborot oqimini tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, pedagogikada yangi yo'nalish bo'lgan mediapedagogikaning muhim vazifasi davlatlar va xalqlarning axborot makonini birlashtirish xususiyati, siyosiy-ijtimoiy va boshqa jihatlarida voqelik (axborot maqomi) haqidagi tasavvurini yoshlar, ayniqsa talabalarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish masalasi turadi.

Аннотация

В данной статье формирование у них информационной культуры является весьма актуальной проблемой защиты молодежи, которая является будущим интеллигенцией, от информационной бури, созданной в мировом сообществе, а также педагогические аспекты формирования умений анализировать происходящее. Освещены потоки информации у студентов. Также важной задачей медиапедагогики, которая является новым направлением в педагогике, является вопрос унификации информационного пространства государства и народов, формирования культуры работы с информацией у молодежи, особенно студентов, в восприятие реальности (состояние информации) в политическом, социальном и других аспектах.

Abstract

In this article, the formation of information culture in them is a very urgent problem in protecting young people, who are the future of the intelligentsia, from the information storm created in the world community, and the pedagogical aspects of forming the skills of analyzing the flow of information in students are highlighted. Also, an important task of media pedagogy, which is a new direction in pedagogy, is the issue of the unification of the information space of states and peoples, the formation of the culture of working with information among young people, especially students, in their perception of reality (status of information) in political, social and other aspects.

Kalit so'zlar: axborot oqimi, OAV (media), globallashuv jarayonlari, mediapedagogika, axborot madaniyati.

Ключевые слова: информационный поток, media, процессы глобализации, медиапедагогика, информационная культура.

Key words: information flow, media, globalization processes, media pedagogy, information culture

KIRISH

Hozirgi paytda jamiyatda sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy munosabatlar ommaviy axborot vositalarining demokratlashuviga olib keldi. Ma'lumki, «Ommaviy axborot vositalari – sun'iy ravishda yaratilgan madaniy dunyo, bugungi kunda global kollektiv ijod mahsuli sifatida keladi»[1]. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti, ta'limi, siyosiy va madaniy rivojlanishiga hissa qo'shuvchi hamda madaniy, ma'naviy-axloqiy, estetik tarbiya berish salohiyatga ham ega bo'lgan vosita bu ommaviy axborot vositalaridir. Darhaqiqat, hozirgi globallashuv jarayonlari tufayli inson ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylangan ommaviy axborot oqimining pedagogik jihatlarini tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish ehtiyojlarini vujudga keltirmoqda. Bunda pedagogikada yangi yo'nalish bo'lgan mediapedagogikaning muhim vazifasi davlatlar va xalqlarning axborot makonini birlashtirish xususiyati, siyosiy-ijtimoiy va boshqa jihatlarida voqelik (axborot maqomi) haqidagi

ILMIY AXBOROT

tasavvurini yoshlardan, ayniqsa talabalarda axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantirish masalasi turadi. Media madaniyat mahsulotlarini yaratish OAV (media) orqali amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz, talaba-yoshlarda axborot oqimini tahlil qilish ko`nikmasini shakllantirishning pedagogik jihatlarini aniqlashtirishda mediaga rus olimi N.B. Kirillova tomonidan berilgan ta'rifga murojaat qildik: «Media – (lotincha «media, medium» – vositachi) dastlabki talqinda ommaviy madaniyatning sinonimi, zamonaviy sharoitda yangi semantik yuklamaga ega bo'lib, madaniy kodlar ishlab chiqariladigan va translatyasiya qilinadigan muhit sifatida ko'rib chiqiladi»[2]. Ye.I. Kuznesova zamonaviy media ijtimoiy faoliyat sohasidagi ko'p tabaqali (darajali) o'zaro ta'sirni o'z ichiga olgan umumiy sivilizasiya jarayoni[3] deb atagan holda, uni “shaxslar, ijtimoiy guruuhlar, institutlarning ma'nnaviy faoliyatini” o'zgartiradigan qadriyatlar va meyorlar almashinuvni sifatida tavsiflaydi[4]. Media asosini axborot tashkil qiladi. Ma'lumki, axborot – ommaviy axborot kommunikasiyalarining va shunga mos ravishda media madaniyati va media voqeligini o'rganishdagi markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Ye.L.Vartanova axborotni verbal hamda noverbal usulda, shuningdek, shartli signallar, texnik vositalar va boshqalar yordamida uzatiladigan ma'lumot[5]11 deb belgilaydi. Olimning fikricha, axborot keng ma'noda, umumiy ilmiy tushuncha sifatida insonlar o'tasida axborot almashishi, o'simlik (nabotot olamida) va jonli olamda (tirik olamda) signal almashishi, belgilarning organizmdan organizmga o'tishi, tor ma'noda esa, (shu jumladan, OAVning nazariy konsepsiylarida), bu atama ma'lum aloqa vositalari orqali uzatiladigan ma'lumotlarga nisbatan qo'llanililadi[6]12. M.Xudoyqulovning fikricha, inson oladigan axborotlarning turlari ham bizni o'rab olgan olam kabi xilma-xildir. Inson oddiy, kundalik turmush axborotidan tashqari ma'lum tartibga solingan axborotlar orqali ham ish ko'radi. Bularga ta'lim-tarbiyaviy axborotlar, kasbiy axborotlar, ilmiy axborotlar, iqtisodiy axborotlar, badiiy-estetik axborotlar va boshqalar kiradi[7]13. Axborotning turli tumanligi uning mazmun va mohiyatini belgilab beradi va til orqali o'z auditoriyasiga taqdim etiladi.

Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallasshuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinnadan birini egallasa-da, mediata'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanimoqda. YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002- yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda esa mamlakatda mediasavodxonlik mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan. 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyiligida «Mediata'lim» darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Mediasavodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsa-da, Respublikamiz umumta'lim maktab-larida ham mediata'lim elementlari fanlar tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda. Umuman, ta'lim tizimi oldidagi ustuvor vazifalardan biri — yosh avlodga zamonaviy bilim berish bilan birga, ularni mustaqil fikrlovchi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarini e'zozlovchi, yuksak insoniy fazilatlarga ega vatanparvar inson sifatida tarbiyalash hamda yoshlardan ongida turli mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi ma'nnaviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir. Bugungi globallasshuv jarayonida yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlaridan,

xususan, Internetdan foydalanish, axborotlarni tahlil etish borasidagi bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish muhim masala hisoblanadi. Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratar ekan. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra esa, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsiz, soxtalaridan ajrata olish, ya'ni mediasavodxonlikka ega bo'lish zarurati yuzaga keldi. So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagи axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi.

«Bugun mediasavodxonlik — bu axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga — bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? — degan savolni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondasha olishi lozim.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilmoqda, o'zida kimning manfaatlarini aks ettirgan degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Shu bois aholi va yoshlar o'ttasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish, uni bajarilishni ta'minlash maqsadida fakultetimizning bir guruh talabalariga mutaxasislar bilan hamkorlikda ajoyib tadbir tashkil etildi. Bunda media uzlusiz ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatlari o'tilishi va o'quvchi-talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratdi. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrarligi tushuntirildi.

Ta'kidlash joizki, nosog'lom axborot oqimlaridan yoshlarni himoyalashga oid dunyoda qator huquqiy mexanizmlar yaratilgan. Jumladan, xalqaro amaliyotda «Kiber jinoyatlar to'g'risida» Konvensiya, «Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida» Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, «Bola huquqlari to'g'risida» BMT Konvensiyasini, «Yoshlarni himoyalash to'g'risida» Germaniya, «Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida» Litva va «Bolalarни sog'lig'i va rivojlanishiga zyon yetkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida» qonunlarini tilga olish mumkin. Ma'lumki, milliy qonunchiligidan ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud. Axborotlashgan jamiyatda axborot resurslari qiymati jihatidan energiya, moliyaviy va boshqa strategik resurslardan kam bo'limgan holda, axborot hozirgi jamiyatda xodimning malakasini oshirish, optimal yechimlarni qabul qilish, yangi professional sohani egallash, raqobatdoshlar oldida strategik ustunlikka erishishi uchun samarali foydalaniqidigan iqtisodiy kategoriya tovar sifatida baholanadi. Yangi axborot texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi ta'limda axborot madaniyatini ahamiyatining ortishiga muhim omil bo'lishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

XULOSA

Yuqoridaq ma'lumotlarga tayangan holda, xulosa qilish mumkinki, talaba-yoshlarning axborot tayyorgarligining tarkibiy tuzilishi quyidagicha: o'zining axborot ehtiyojini ifodalash, axborot so'rovlarini shakllantirish qobiliyati; axborot resurslari bilimi; media imkoniyatlarini bilish va ulardan foydalanish qobiliyati; axborot qidiruvini amalga oshirish qobiliyati; axborotlarni qayta ishlash bilim va ko'nikmalari; axborotlarga tanqidiy yondashish, ularni tushunish va baholash hamda ulardan ijodiy foydalanish ko'nikmalari; zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana bilish. Talabalarning axborot madaniyatini madaniyatning alohida jihatlariga nisbatan o'ziga xosligini tushinib olish real voqelikni bilishga, axborotlashgan jamiyat haqidagi tasavvurlarning rivojlanishida axborotlashgan yondashuvning vujudga kelishi natijasidagina mumkin bo'ladi. Foydalanuvchi pedagog va foydalanuvchi talabalarning axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha faoliyatlarining dolzarbligi o'qitishning yangi modelini yaratishga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, axborot resurslariga asoslanadi. Shuning uchun ta'lim samaradorligining zaruriy sharti ta'lim hamjamiyatining yuqori axborot madaniyatini hisoblanadi.

ILMIY AXBOROT

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Челышева И.В. Социокультурное поле медиа: реальность, коммуникация, человек. М: МОО «Информация для всех», 2016. – С. 42.
- 2.Кириллова Н.Б. Медиакультура: теория, история, практика. М.: Академический проект; Культура, 2008. –С.11.
- 3.Кузнесова Е.И. Медиальность и медиакультура как фактиоры динамики социальной среды. Автореф. ...д-ра филос. наук. // 09.00.11. Нижний Новгород, 2010. – С. 3.
4. Кузнецова Е.И. Ko'satilgan asar.
5. Вартанова Е. Л. Медиаэкономика зарубежных стран. М.: Аспект Пресс, 2003. – С.320.
6. Вартанова Е. Л. Ko'satilgan asar.
7. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publisistika. – Toshkent.: Tafakkur, 2011. – В. 5-9.